

BADIIY ASAR QAHRAMONLARINI TAHLIL QILISH METODIKASI

Mashhura KADIROVA,

Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti O‘zbek adabiyoti va uni o‘qitish metodikasi kafedrasida dotsenti v.b., p.f.f.d.(PhD)

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15877996>

Annotatsiya: Mazkur maqolada adabiy ta’lim jarayonida badiiy asar qahramonlarini tahlil qilishning samarali metodik yondashuvlari yoritilgan. Maqolada “Xarakter xaritasi”, “Qahramon nomidan monolog”, “Qahramonlar sudi”, “Rolga kirish” va “Zamonaviy qahramon” kabi interfaol metodlar orqali dars samaradorligini oshirish bo‘yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: qahramon, obraz, adabiy ta’lim, metodika, estetik tarbiya, rolga kirish, tahlil, yondashuv.

Аннотация: В данной статье рассматриваются эффективные методические подходы к анализу персонажей художественного произведения в процессе литературного образования. В статье даются рекомендации по повышению эффективности урока с помощью интерактивных методов, таких как «Карта персонажа», «Монолог от имени героя», «Суд героев», «Введение в роль» и «Современный герой».

Ключевые слова: герой, образа, литературное образование, методика, эстетическое воспитание, вживание в роль, анализ, подход.

Abstract: This article examines effective methodological approaches to analyzing characters in a work of art in the process of literary education. The article provides recommendations for increasing the effectiveness of a lesson using interactive methods such as "Character Map", "Monologue on Behalf of the Hero", "Heroes' Trial", "Introduction to the Role" and "Modern Hero".

Key words: hero, image analysis, literary education, methodology, aesthetic education, getting into character, analysis, approach.

Adabiyot fani o‘quvchilarning ma’naviy kamolotini ta’minlash, ularda estetik did, milliy g‘urur, badiiy tafakkur va mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Adabiyot darslarining asosiy vazifalaridan biri — o‘quvchida badiiy tafakkur, estetik did, hayotga teran nigohni shakllantirishdir. Bu esa avvalo asardagi qahramonlarni anglash va tahlil qilish orqali amalga oshadi. Badiiy asar qahramoni — adib g‘oyasining timsoli, asarning mazmuniy va ma’naviy markazidir. Shu bois o‘quvchilarda qahramon shaxsiga nisbatan mustaqil, tanqidiy, xolis munosabat uyg‘otish muhim metodik vazifalardan biri hisoblanadi. Bu jarayonda adabiy asar qahramonini tahlil qilish — asar mazmunini chuqur anglash, yozuvchi g‘oyasini to‘g‘ri talqin qilish, shuningdek, o‘quvchini badiiy fikrlashga o‘rgatishning asosiy vositasi bo‘lib, tahlil orqali o‘quvchi asar ichiga kiradi, qahramon bilan hamnafas bo‘ladi, uning xatti-harakatlari va qarorlariga baho beradi.

Badiiy asar qahramonini tahlil qilish deganda, uning ichki va tashqi olami, xatti-harakatlari, qarashlari, boshqa obrazlar bilan munosabati, shuningdek, muallif pozitsiyasini tahlil qilish tushuniladi. Bu jarayon o‘quvchining nafaqat asarni anglash, balki hayotiy vaziyatlarga baho bera olish qobiliyatini ham rivojlantiradi.

Adabiy qahramon — bu asarda aks etgan inson obrazidir. U orqali yozuvchi o‘z g‘oyasini ifodalaydi, o‘quvchiga estetik ta’sir o‘tkazadi. Qahramon o‘zining fe’l-atvori, qarashlari, qarorlari, harakatlari bilan asarning mazmunini boyitadi va uni hayotiy qiladi. U muallif g‘oyasini ifodalovchi, o‘quvchini hayajonga soluvchi, jamiyatdagi muammolarni yorituvchi hamda axloqiy saboq beruvchi badiiy obraz bo‘lib, u o‘quvchining hayotga munosabatini shakllantirishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi.

Badiiy asardagi qahramonni tahlil qilish muallif g‘oyasini ochishda, asarning mazmun-mohiyatini anglashda va o‘quvchida mustaqil fikrlash, kuzatish, tahlil qilish kabi ko‘nikmalarni shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Quyidagi metodik bosqichlar orqali bu jarayon tizimli va samarali yo‘lga qo‘yiladi:

1. Tanishtirish bosqichi:

Bu bosqichda o‘quvchilar qahramon bilan dastlabki tanishuvni amalga oshiradilar. Asarda uning ismi, yashash muhiti, ijtimoiy maqomi, oilaviy holati, atrofidagi odamlar bilan munosabati, voqealar zanjiridagi o‘rni aniqlanadi. Qahramonning jamiyatdagi o‘rni va uning faoliyati asosida obrazga dastlabki munosabat shakllanadi.

Bu qahramon kim?

U qanday jamiyatda, qanday sharoitda yashaydi?

Qahramon asarda qanday voqealarga daxldor?

Asar g‘oyasini yoritishda bu obrazning o‘rni qanday?

2. Ichki va tashqi tavsif:

Bu bosqichda qahramonning tashqi ko‘rinishi (yuzi, kiyim-boshi, yurish-turishi, nutqi) bilan bir qatorda ichki dunyosi — ya’ni ruhiy holati, kechinmalari, his-tuyg‘ulari, dunyoqarashi, orzulari, niyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, u bilan boshqa obrazlar o‘rtasidagi ruhiy qarama-qarshiliklar ham ko‘rib chiqiladi. Bu bosqich o‘quvchining badiiy tafakkurini rivojlantiradi.

Qahramon qanday odam sifatida tasvirlangan?

Uning fe’l-atvori qanday?

U qanday odatlarga ega?

Qahramon nimalarni his qiladi? Nimalarni orzu qiladi?

3. Xatti-harakat va nutq tahlili:

Bu bosqichda qahramonning asar davomida amalga oshirgan xatti-harakatlari, qarorlari, tashabbuslari, boshqalarga munosabati, nutqidagi ifodalar asosida uning xarakteri va ichki pozitsiyasi aniqlanadi. Shuningdek, uning ijobiy yoki salbiy tomonlari hayotiy vaziyatlar fonida ochib beriladi.

Qahramon qanday holatlarda faol ishtirok etadi?

U qanday qarorlar qabul qiladi va nega?

Qahramon o‘z so‘zlari va harakatlari bilan nimani anglatmoqchi?

Bu harakatlar uning qanday inson ekanidan darak beradi?

4. Baholash bosqichi:

Bu bosqichda o‘quvchi qahramon haqida mustaqil xulosa chiqaradi. Qahramonning harakatlariga o‘z munosabatini bildiradi, uni maqtaydi yoki tanqid qiladi. Qahramonning hayoti, qarashlari, tanlovi o‘quvchiga qanday saboq bergani tahlil qilinadi. Bu bosqichda shaxsiy baho va ijtimoiy-axloqiy mezonlar asosida fikr yuritish o‘rgatiladi.

Siz ushbu qahramonni qanday inson deb hisoblaysiz?

Uning harakatlariga qanday munosabat bildirasiz?

Bu obraz sizga qanday saboq berdi?

5. Taqqoslash va xulosalash bosqichi:

So‘nggi bosqichda qahramon boshqa asarlardagi yoki shu asarning boshqa obrazlari bilan taqqoslanadi. Uning farqlari, o‘xshashliklari, umumiy va o‘ziga xos jihatlari aniqlanadi. O‘quvchilar bu orqali obrazning estetik va axloqiy qiymatini chuqurroq anglaydi, asardan ijtimoiy hamda shaxsiy xulosa chiqaradi.

Qahramonni boshqa obraz bilan taqqoslaganingizda qanday farq sezildi?

Sizga qaysi obraz yaqinroq va nega?

Ushbu qahramon asar g‘oyasini ochishda qanday rol o‘ynadi?

Asardan qanday hayotiy va estetik xulosa chiqarishingiz mumkin?

Adabiy asarlar tahlilida o‘quvchilar faolligini oshirish, ularning mustaqil fikrlashi, qiyosiy tahlil qilish, obrazlarni chuqur anglashiga erishish uchun turli interfaol metodlar va uslublardan samarali foydalanish zarur. Quyida badiiy qahramonlarni o‘rganishda qo‘llanishi mumkin bo‘lgan samarali metodlarni keltirib o‘tamiz, bu metodlar o‘quvchilarning adabiy obrazlarga nisbatan qiziqishini oshiradi, mustaqil fikrlash va tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi hamda ularning estetik didini shakllantirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi:

1. “Xarakter xaritasi” metodi

Bu metod orqali o‘quvchilar qahramonning xarakterini chuqurroq o‘rganadilar. Dars davomida ular qahramonning fazilatlarini, nuqsonlari, qarorlari, harakatlari, his-

tuyg‘ulari va unga ta’sir qilgan tashqi omillarni tahlil qilib, maxsus xarita shaklida ifodalaydilar. Bu usul orqali obrazni ko‘p qirrali tarzda yoritish imkoniyati tug‘iladi.

Masalan: Qahramonning ijobiy va salbiy sifatlari ikki ustunga yoziladi, har bir harakatiga asosli misollar keltiriladi, shaxsiy baho qo‘shiladi.

2. “Qahramon nomidan monolog” metodi

Bu metodda o‘quvchi o‘zini qahramon o‘rniga qo‘yib, uning ichki kechinmalari, orzu-umidlari, pushaymonliklari yoki qarashlarini o‘z nomidan ifodalaydi. Bu usul orqali o‘quvchi qahramon ruhiyatiga chuqur kirib boradi, badiiy tafakkur va empatiya rivojlanadi.

Masalan: “Men bu qarorni qabul qilganimda yuragimda qanday tuyg‘ular bor edi...” kabi iboralar bilan boshlanuvchi monologlar yoziladi yoki og‘zaki aytiladi.

O‘quvchiga topshiriq: “Otabekning Kumush vafotidan keyingi ichki monologini tasavvur qilib yozing yoki ayting.”

O‘quvchi monologi namunasi:

“Men yana tushlarimda Kumushning chehrasini ko‘rdim. Uning ohangrabodek nigohlari meni yashashga, kurashishga undaydi. Ammo yuragimda bir alam bor — men uni asray olmadim...”

3. “Rolga kirish” metodi

Ushbu metod dramalashtirishga asoslangan bo‘lib, o‘quvchi darsda qahramon rolini bajaradi. Ma’lum bir voqea yoki holat yuzasidan qahramon qanday munosabat bildirgan bo‘lsa, o‘quvchi uni ifodalaydi. Bu metod orqali obrazga emotsional va axloqiy yondashuv shakllanadi.

Masalan: Qahramonning muhim qaror qabul qilgan sahnasi sahnalashtiriladi, o‘quvchi uning rolini bajaradi va nima uchun aynan shunday yo‘l tutganini tushuntiradi.

4. “Qahramonlar sudi” metodi

Bu metodda darsda muhokama shaklida adabiy obrazlar xatti-harakatiga ijtimoiy va axloqiy baho beriladi. O‘quvchilar sudlovchilar, himoyachilar va guvohlar rovida qatnashib, obrazning qarorlarini asoslaydilar yoki tanqid qiladilar. Bu usul o‘quvchilarda hayotiy pozitsiya, tahliliy fikr yuritish va dalillash ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Masalan: “Sud stoli” uslubida qahramonning ijtimoiy javobgarligi baholanadi, ijtimoiy qadriyatlar bilan bog‘lanadi.

5. “Zamonaviy qahramon” metodi

Bu usul orqali adabiy obraz bugungi kun yoshlari bilan taqqoslanadi. O‘quvchi o‘sha qahramon hozirgi davrda yashaganida qanday fikrlagan, qanday yo‘l tutgan

bo'lishi mumkinligini tahlil qiladi. Bu metod orqali obrazning dolzarbligi va zamonaviylik bilan aloqasi yoritiladi.

Masalan: O'quvchilar "Agar bu qahramon bugun biz bilan bir davrda yashaganida..." yoki "Agar bu qahramon biz bilan bir sinfda o'qiganida..." degan shartli holat asosida tahlil yuritadilar.

Adabiy asar qahramonini tahlil qilish o'quvchilarning nafaqat badiiy tafakkurini, balki hayotga, inson ruhiy olamiga va jamiyatdagi murakkab munosabatlarga ongli yondashuvini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Bu jarayon orqali o'quvchilar obrazlar orqali ifodalangan axloqiy-ruhiy kechinmalarni, tanlov va qarorlarning oqibatini tahlil qilishga, ularni hayotiy vaziyatlar bilan bog'lashga o'rganadilar.

Qahramon tahlili:

o'quvchini to'g'ri fikrlash, mustaqil xulosa chiqarish va hayotiy tanlovda oqilona yo'l tanlashga undaydi;

insoniy fazilatlar, jamiyatdagi ijtimoiy ziddiyatlar va ruhiy kechinmalar mohiyatini anglashga yo'naltiradi;

badiiy matndagi xarakter, voqea va tafsilotlarni chuqur anglash, his etish va estetik zavq olish ko'nikmasini rivojlantiradi;

o'quvchining mulohazakorligi, tanqidiy fikrlashi va obrazlarga asosli baho bera olish salohiyatini oshiradi.

Shu jihatdan, qahramon tahlili adabiy ta'limning mazmunini boyituvchi, o'quvchining ichki dunyosini shakllantiruvchi kuchli tarbiyaviy va estetik vosita sifatida xizmat qiladi.

1. Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Kadirova M.N. Technological solutions and innovative digital tools. Netherlands. <https://staff.tiiame.uz/storage/users/829/articles/nyOCfZLWmrPLJiMMJmugxLcoqGUmIvB9cP2PPxaq.pdf>
2. Kadirova M.N. Improvement Of Students' Competences on Folklore Genres in Distance Learning Environment. Nizami Tashkent State Pedagogical University lecturer of the Department of Uzbek language and literature. <https://geniusjournals.org/index.php/ejlat/article/view/410>
3. Kadirova M.H. "The need for improving the methodology of teaching folklore in distance learning" Lecturer, Department of Uzbek language and literature of Tashkent State Pedagogical University named after Nizami, Uzbekistan, <https://inlibrary.uz/index.php/crjps/article/view/17610>
4. Kadirova M.N., Innovative methods for improving the methodology of teaching folklore in literature lessons. AmericanAcademicpublishers, volume05, issue05, 2025. [INNOVATIVE METHODS FOR IMPROVING THE METHODOLOGY OF TEACHING FOLKLORE IN LITERATURE LESSONS | International journal of artificial intelligence](https://www.innovativejournals.com/index.php/ijai/article/view/1179)
5. Махбуба Қадамбоевна Ўразбаева. АЁЛ ХАРАКТЕРИНИ ОЧИШДА БАДИИЙ НУТҚНИНГ ЎРНИ. GOLDEN BRAIN. RAIN ISSN: 2181-41 20. 23.01.10. 193-199- 6. <https://researchedu.org/index.php/goldenbrain/article/view/1179>

"TURKIY XALQLAR ADABIYOTIGA DOIR ZAMONAVIY YONDASHUVLAR: MUAMMOLAR, OMILLAR, YECHIMLAR"

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari

6. Burxanova, Feruza. "Nazar Eshonqulning ilm-ma'rifat, kitobxonlikka doir qarashlari." *Konferensiyalar/ Conferences*. Vol. 1. No. 12. 2024.
7. RAJABOVA, Hulkar. "Qissada ekzistensial qahramon va uning jonzodlar bilan yashash motivi (Shuhrat Matkarimning "Maqar" qissasi misolida)." «*ACTA NUUZ*» 1.1.2. 1 (2025): 318-320.
8. Omanova, M. A. (2020). Updating views on literary heroes and glory in the novels of the period of independence. *Novateur publications JournalNX-A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal*, 6(10), 415-419.
9. Abdujamilovna, Kalandarova Dilafruz. "Attitude to uzbek folklore in the research of karl reichl." *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal* 11.5 (2021): 500-503.
10. Atabayeva G.F. The sign content of "Ffu" novel // *Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities*, USA. 2022. – P.139-142. (Impact Factor - 8.0).